



AXBOROT TERRORIZMI: ZAMONAVIY TAHDID SIFATIDA MA'NAVIY QADRIYATLAR VA IJTIMOY ONGGA TA'SIRI

Qurbonov Sherzodjon Shuxratovich

Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-
ma'naviy tadqiqotlar instituti mustaqil izlanuvchisi
+998 (91) 557-17-46 sherzodjonurbonov@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17287004>

ARTICLE INFO

Received: 01st October 2025

Accepted: 04th October 2025

Online: 06th October 2025

KEYWORDS

Axborot terrorizmi", axborot oqimlari, ma'naviy jarayonlar, konsepsiya, zamonaviy jamiyat, ma'naviy immunitet, media makoni, "tomosha jamiyati"

ABSTRACT

Mazkur maqolada Axborotlashgan jamiyatning shakllanishi bilan bir qatorda yangi xavf manbalari ham yuzaga chiqib kelayotganligi tahlil qilinadi. Xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali tarqalayotgan manipulyativ ta'sirlarning yoshlar qadriyatlarini, ma'naviy barqarorligi va ijtimoiy identitetiga salbiy ta'siri ko'rsatiladi. Maqolada xalqaro ilmiy yondashuvlar hamda milliy ma'naviy-axloqiy texnologiyalar asosida bu tahdidlarga qarshi kurash strategiyalari bayon etilgan. Tadqiqot yoshlarda tanqidiy fikrlash, axborot savodxonligi va madaniy identitetni mustahkamlash orqali axborot tahdidlariga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish g'oyasi ilgari suriladi. Bu jarayon axborot xavfsizligini nafaqat texnik, balki falsafiy-ma'naviy masala sifatida ko'rishga zamin yaratadi.

Axborotlashgan jamiyatning shakllanishi bilan bir qatorda yangi xavf manbalari ham yuzaga chiqmoqda va ularning eng muhimlaridan biri sifatida "axborot terrorizmi" tushunchasi alohida ilmiy-nazariy muhokamalarga sabab bo'lmoqda.

Axborotlashgan jamiyatda shakllanayotgan yangi xavf manbalari va "axborot terrorizmi" fenomeni insoniyat tafakkuri, ongini boshqarish mexanizmlari hamda ma'naviy jarayonlar bilan uzviy bog'liq murakkab ijtimoiy-falsafiy muammodir. Raqamli makonning global tus olishi bilan bir qatorda inson ruhiyatiga, ma'naviy qadriyatlariga va ijtimoiy ong strukturalariga yo'naltirilgan xavf manbalari ham ko'payib bormoqda.

Adabiyotlar tahlili. Axborotlashgan jamiyatning shakllanishi bilan bir qatorda yangi xavf manbalari ham yuzaga chiqishi A. Tofflarning uchinchi to'liq davrida bilim va axborot resurslari jamiyatdagi kuch manbai sifatida moddiy ishlab chiqarishdan ustunlikka erishishi, M. Baudrillardning axborot oqimlari real voqelikni siqib chiqarib, uning o'rniga simulyakrlarni yaratishi shunigdek M. Foucault, M. Kaldor, M. Castells, M. Hardt va A. Negri, D. Lyon, M. Heidegger hamda G. Debordlarning ilmiy yondashuvlari tahlil qilindi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada kuzatish, adabiyotlar, ma'muriy-huquqiy hujjatlarni o'rganish va tahlil qilish, taqqoslash, ilmiy bilish va vorisiylik kabi tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Axborotlashgan jamiyatda shakllanayotgan yangi xavflar global miqyosda ma'naviy jarayonlarga bevosita ta'sir ko'rsatishini va bu yondashuv hodisaning zamonaviy mohiyatini yanada kengroq talqin etishga yordam beradi

Tahlillar va natijalar. Ma'naviy jarayonlar va texnologiyalar kontekstida ko'rib chiqish, zamonaviy axborot makonining o'ziga xos xususiyatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi. A. Toffler qayd etganidek, "uchinchi to'liq davrida bilim va axborot resurslari jamiyatdagi kuch manbai sifatida moddiy ishlab chiqarishdan ustunlikka erishadi" [1.352.]. Bu fikr shuni ko'rsatadiki, yangi xavf manbalari endilikda moddiy emas, balki axboriy-ramziy tabiatga ega bo'lib, ular jamiyat ongini bevosita shakllantirishga qaratiladi.

M. Baudrillard esa ushbu jarayonni yanada keskinroq talqin qilib, "axborot oqimlari real voqelikni siqib chiqarib, uning o'rniga simulyakrlarni yaratadi, bu esa terrorizmning yangi shakllarini ma'naviy maydonda ishlab chiqishga xizmat qiladi" deya yozadi[2.84.]. Uning nuqtai nazaridan dalolat beradiki, axborot terrorizmi faqatgina ma'lumotni buzib ko'rsatish emas, balki voqelikni ongimizda qayta ishlab, sun'iy haqiqatlar bilan almashtirish jarayonidir. Bu yondashuv ma'naviy immunitetning izdan chiqishini ham anglatadi, chunki inson axborotning haqiqiy va yolg'on qirralarini ajratish qobiliyatini yo'qotadi. M. Foucault nazariyasida esa masalaga hokimiyat va nazorat mexanizmlari nuqtai nazaridan yondashiladi: "axborot tarmoqlari hokimiyatning yangi panoptikonidir, ular orqali insonlar ongiga nazorat o'rnatiladi va intizomga solinadi" [3.201.]. Bu nazariya axborot terrorizmini texnologik sharoitda amalga oshadigan nazoratning mutlaq shakli sifatida izohlaydi. Shunday bo'lsa-da, Foucaultning fikrini tanqidiy baholash lozim: u nazoratni faqat repressiv kuch sifatida talqin etadi, ammo axboriy muhitda insonning qarshilik ko'rsatish, tanqidiy fikrlash orqali ma'naviy mustaqillikni tiklash imkoniyati ham mavjud. M. Kaldor esa xavfsizlik nazariyalarini tahlil qilar ekan, "yangi xavfsizlik tahdidlari davlatlar o'rtasidagi urushlardan ko'ra ko'proq transmilliy tarmoqlar orqali amalga oshiriladi va bunda axborot qurol darajasiga ko'tariladi" deya ta'kidlaydi[4.109.]. Bu fikr axborot terrorizmining transmilliy xarakterini ochib beradi: u milliy chegaralarni tan olmaydi, balki texnologik tarmoqlar orqali butun insoniyatning ma'naviy-madaniy muhitini larzaga soladi.

Shuni aytish mumkinki Tofflerning "bilim – kuch manbai" haqidagi g'oyasi axborot terrorizmining intellektual ildizlarini ochadi, ammo u xavfning ma'naviy oqibatlarini to'liq yoritmaydi. Baudrillard esa voqelikning o'rniga simulyakrlarning paydo bo'lishini alohida ta'kidlab, axborot terrorizmining eng muhim qirrasini ko'rsatadi, biroq bu jarayonda insonning faol qarshilik imkoniyatlarini e'tibordan chetda qoldiradi. Foucaultning panoptikon nazariyasi axboriy nazoratning strukturasi yaxshi tushuntirsa-da, u ham insonning ongli qarshi harakat qilish ehtimolini kam baholaydi. Kaldorning transmilliy tahdid haqidagi qarashi esa axborot terrorizmining global miqyosda ma'naviy jarayonlarga bevosita ta'sir ko'rsatishini ochib beradi va bu yondashuv hodisaning zamonaviy mohiyatini yanada kengroq talqin etishga yordam beradi.

M. Castells ta'kidlaganidek: "tarmoq jamiyatida hokimiyat axborot oqimlarini nazorat qilish qobiliyatiga asoslanadi, bu esa ma'naviy dunyoni qayta formatlash imkonini beradi"[5.54.]. Ushbu yondashuv axborot terrorizmini nafaqat tashqi xavf sifatida, balki ongni boshqarishning yangi shakli sifatida ham tushunishga zamin yaratadi. Z. Bauman zamonaviylik sharoitida beqarorlik fenomenini tahlil qilib, shunday yozadi: "suyuqlashgan modern davrida qo'rquv va xavf axborot oqimlari orqali ishlab chiqariladi va ular odamlarning ma'naviy tasavvurlarini shakllantiradi"[6.117.]. Bu fikr axborot terrorizmi tushunchasini chuqurlashtiradi, chunki u terrorizmni shunchaki qurol yoki tahdid emas, balki ongni qo'rquv

va noaniqlik orqali boshqarish mexanizmi sifatida ko'rsatadi. Bauman nazariyasi ma'naviy jarayonlarning zaiflashuvini ham ochib beradi: qo'rquv orqali shakllangan axborot maydoni ijtimoiy ishonchni yemiradi. M.Hardt va A. Negri global kommunikatsiya va hokimiyat munosabatlarini tahlil etar ekan, "axborot oqimlari imperiya mexanizmining markazida turib, ular odamlarning ma'naviy va siyosiy tanlovlarini cheklash vositasiga aylanadi" deya ta'kidlaydi[7.32.]. Bu qarash axborot terrorizmining siyosiy va ideologik qirrasini yoritadi: texnologiyalar orqali insonlarning tanlov imkoniyatlari torayadi, ular "algoritmik taqdir" doirasida yashashga majbur qilinadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, axborot terrorizmi – bu insonning ma'naviy erkinligiga qarshi yo'naltirilgan yashirin zo'ravonlik shaklidir. Shuningdek, U. Beck xavf jamiyati konsepsiyasida shunday yozadi: "zamonaviy jamiyatning asosiy paradoksi shundaki, u o'zining texnologik taraqqiyoti orqali yangi xavf manbalarini ishlab chiqaradi va bu xavflar avvalo ma'naviy barqarorlikni yemiradi" [8.21.]. Beckning qarashi axborot terrorizmini xavf jamiyatining mantiqiy davomi sifatida tushunishga imkon beradi. Chunki raqamli texnologiyalar rivojlanar ekan, ularga asoslangan xavf manbalari ham murakkablashadi va insonning ma'naviy immunitetini sinovdan o'tkazadi.

Castellsning tarmoq jamiyati nazariyasi axborot terrorizmining strukturaviy ildizlarini ochib bersa, Bauman ushbu jarayonning psixologik va ma'naviy oqibatlarini yoritadi. Hardt va Negri axborot oqimlarini global imperiya kuchlari bilan bog'lab, fenomenning siyosiy-ideologik qirralarini tahlil qiladi. Beck esa bu jarayonni xavf jamiyatining tabiiy mahsuli sifatida baholab, texnologiyalar orqali ma'naviy jarayonlar qanday zaiflashishini ko'rsatadi. Bularning barchasi umumiy holda axborot terrorizmini ma'naviy jarayonlar va texnologiyalar kesishmasida shakllanuvchi murakkab ijtimoiy-falsafiy fenomen sifatida talqin etish zarurligini tasdiqlaydi.

Axborotlashgan jamiyat sharoitida yangi xavf manbalari va "axborot terrorizmi" tushunchasining shakllanishi insoniyat taraqqiyotining eng nozik nuqtalaridan biri bo'lib, uni faqat texnologik rivojlanish oqibati sifatida emas, balki ma'naviy jarayonlar va axloqiy-ruhiy transformatsiyalar bilan bog'liq murakkab fenomen sifatida talqin etish zarur. D. Lyonning ta'kidlashicha: "raqamli nazorat vositalari insonlarning kundalik hayotiga singib ketar ekan, ular orqali qo'rquv, xavotir va doimiy kuzatuv hissi shakllantiriladi" [9.67.]. Bu fikr axborot terrorizmi texnologiyaviy nazorat bilan uzviy bog'liq ekanini va u odamlarning ma'naviy dunyosida barqaror xavotir kayfiyati yaratishini ko'rsatadi. Biroq, Lyonning yondashuvi texnologik nazoratni ko'proq tashqi mexanizm sifatida talqin qiladi, insonning ichki qarshilik va tanqidiy tafakkur imkoniyatlarini yetarli darajada yoritmaydi. M.Heidegger texnologiya mohiyatini sharhlar ekan, "texnologiya faqat vosita emas, balki mavjudlikni ochishning muayyan usuli, ya'ni dunyoni qamrab olishning o'ziga xos tarzidir" deya ta'kidlaydi[10.23.]. Ushbu qarash axborot terrorizmining chuqurroq falsafiy ildizlarini ochadi, chunki texnologik platformalar orqali dunyo "ochilayotgan" bo'lsa, bu ochilish ko'pincha manipulyativ, ongni boshqarishga yo'naltirilgan shaklda yuz beradi. Shu jihatdan qaraganda, Heideggerning mulohazalari axborot terrorizmining nafaqat ijtimoiy, balki ontologik jarayon sifatida ham mavjudligini ko'rsatadi. D. Kellner esa zamonaviy ommaviy axborot vositalarini tahlil qilib, "media makoni global mafkuralar maydoni bo'lib, unda qo'rquv, xavf va dushman obrazlari muntazam ishlab chiqariladi" deya yozadi[11.145.]. Bu qarash axborot terrorizmining madaniy-ma'naviy jihatlarini yoritadi: ommaviy media orqali "doimiy tahdid" obrazi yaratiladi va u ijtimoiy ongga chuqur singdiriladi. Biroq Kellnerning yondashuvi ko'proq ideologik

bosimga e'tibor qaratadi, ammo bu bosimdan chiqib ketish imkoniyatlarini kamroq yoritadi. G.Debord esa "tomosha jamiyati" konsepsiyasida "reallik o'rnini tasvirlar egallaydi va ular odamlarning idrokini belgilovchi yagona haqiqat sifatida qabul qilinadi" deya ta'kidlaydi[12.12.]. Bu fikr axborot terrorizmini ramziy-ma'naviy nazorat shakli sifatida anglashimizga yordam beradi: inson ongida sun'iy yaratilgan tasvirlar va voqelik simulyakrlari real hayotdan ustun mavqega ega bo'ladi. Demak, Debordning qarashlari axborot terrorizmining estetika va semiotika bilan bevosita bog'liqligini ochib beradi.

Xulosa bildiradigan bo'lsak, Lyonning nazoratga oid mulohazalari axborot terrorizmining texnologik mexanizmlarini aniq ko'rsatadi, ammo uning qarashlari insonning faol qarshilik imkoniyatlarini kamroq ochadi. Heideggerning texnologiya haqidagi falsafiy tahlili esa masalani chuqur ontologik kontekstda tushuntiradi va axborot terrorizmini mavjudlikni boshqarish shakli sifatida anglash imkonini beradi. Kellnerning media-madaniyatga oid qarashlari mafkuraviy va ideologik qirralarni ko'rsatadi, Debord esa axborot terrorizmining semiotik hamda ma'naviy estetikasini tahlil qiladi. Shu asosda aytish mumkinki, axborotlashgan jamiyatda yangi xavf manbalari nafaqat tashqi nazorat va texnologik kuchlar orqali, balki ongni ramziy, estetik va ma'naviy jihatdan boshqarish orqali ham shakllanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Toffler, A. (1980). The Third Wave. – New York: Bantam Books.
- 2.Baudrillard, J. (1995). The Gulf War Did Not Take Place. – Sydney: Power Publications.
- 3.Foucault, M. (1991). Discipline and Punish: The Birth of the Prison. – London: Penguin.
- 4.Kaldor, M. (2012). New and Old Wars: Organized Violence in a Global Era. – Stanford: Stanford University Press.
- 5.Castells, M. (2009). Communication Power. – Oxford: Oxford University Press.
- 6.Bauman, Z. (2000). Liquid Modernity. – Cambridge: Polity Press.
- 7.Hardt, M., Negri, A. (2000). Empire. – Cambridge: Harvard University Press.
- 8.Beck, U. (1992). Risk Society: Towards a New Modernity. – London: Sage Publications.
- 9.Lyon, D. (2003). Surveillance after September 11. – Cambridge: Polity Press.
- 10.Heidegger, M. (1977). The Question Concerning Technology. – New York: Harper & Row.
- 11.Kellner, D. (2002). Media Spectacle. – London: Routledge.
- 12.Debord, G. (1994). The Society of the Spectacle. – New York: Zone Books.